

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ЁШ
ОЛИМЛАР КЕНГАШИ**

**“BZONE CONSULTING CENTER” МЧЖ ҲАМДА
ЎЗБЕКИСТОН ИНТЕРНЕТ ТАДБИРКОРЛАР ВА ЭЛЕКТРОН
САВДО АССОЦИАЦИЯСИ
ТАШАББУСЛАРИ БИЛАН**

**“ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ФАН,
ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИЯ УЙҒУНЛИГИ”**

**МАВЗУСИДАГИ
РЕСПУБЛИКА 10-СОН КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ-
МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯСИ 1-ҚИСМ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**“НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ В ОБНОВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА
И СОВМЕСТИМОСТЬ ИННОВАЦИЙ”
РЕСПУБЛИКА 10 – НЕСКОЛЬКО НАУЧНЫХ РАССТОЯНИЙ
МАТЕРИАЛЫ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ ЧАСТЬ 1**

**“SCIENCE, EDUCATION IN RENEWING UZBEKISTAN
AND COMPATIBILITY OF INNOVATION”
REPUBLIC 10 – MULTIPLE SCIENTIFIC DISTANCE
MATERIALS OF ONLINE CONFERENCE PART**

ТОШКЕНТ 2021

Удк. 001.895(575.1)

Ббк. 72(5У)

Я 61

“Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйғунлиги” [ТОШКЕНТ 2021]

**“Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйғунлиги” мавзусидаги
республика 10 – сон кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференцияси материаллари
Тўплами 1-қисм, 30-август, Тошкент 2021. 74-б.**

**Ушбу Республика 10-сон кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция 1-
қисми 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор
йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа – илмий изланиш
ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантириш, шунингдек,
Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирмонович Мирзиёевнинг 2020 йил 24
январдаги Олий Мажлис аъзоларига анъанавий мурожаатномасида мамлакатимизда илм-
фани янада равнақ топтириш, ёшларимизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси
этиб тарбиялаш, ракобатбардош иқтисодиётни шакллантириш борасида бошлаган
ишларимизни жадал давом эттириш ва янги, замонавий босқичга кўтариш борасидаги
вазифалардан келиб чиқиб Тўпламга Республика Олий ва ўрта маҳсус ўқув юртларида илмий
изланишлар олиб бораётган ёш тадқиқотчилар, докторант, педагоглар, мактаб ўқитувчилари,
магистрант ва талабаларнинг мақола ва тезислари киритилган.**

Масъул муҳаррирлар:

1. Г. Т. Исанова – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
“Ўзбекистонда демократик давлат қуриш назарияси ва амалиёти” кафедраси катта
ўқитувчи, фалсафа доктори (PhD).
2. Х.У.Тўхтаев. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси хузуридаги “Ёшлар
парламенти” аъзоси.

Тахририят аъзолари:

1. **Рақамли иқтисодиёт. Янгиланаётган Ўзбекистонни ИТ платформалари, янги
технологиялар ва бизнес моделлари орқали ривожлантириш йўллари;** (Бабаджабов Содикжон Шавкат ўғли – Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари
агентлиги Инновация ва ракамли технологияларни ривожлантириш бошқармаси
ходими, магистр, академик)
2. **Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши;** (Исанова Гулбаҳор Тахировна – Мирзо Улугбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Ўзбекистонда демократик давлат қуриш
назарияси ва амалиёти” кафедраси катта ўқитувчи, фалсафа доктори (PhD))

3. **Ўзбекистонда ижтимоий соҳани ривожлантиришда ҳамда аҳолининг турли қатламларини ижтимоий қўллаб-қувватлашда замонавий технологияларни амалга ошириш йўналишлари;** (Г.Ҳ. Тиллаева – ЎзРФА Ёш олимлар кенгаши раис ўринбосари, фалсафа фанлари номзоди, доцент)
4. **Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар;** (Сафаров Алижон Итолмасович – Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети доценти.)
5. **Тарих саҳифаларидағи изланишлар;** (О.С. Хайтова – Навоий давлат кончилик институтининг Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири, тарих фанлари номзоди, доцент)
6. **Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни;** (Жуманиязова Насиба Сапарбаевна - ТошТЙМИ, ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси таянч докторанти, фалсафа доктори (PhD))
7. **Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни;** (Файзийева Ширин Шодмоновна – Қарши Муҳандислик иқтисодиёт институти Инновацион иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси, иқтисод фанлари номзоди доцент)
8. **Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар;** (Тошева Дилдора Абдумаликовна – БухДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчиси, фалсафа доктори (PhD))
9. **Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар;** (Тошева Дилдора Абдумаликовна – БухДУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчиси, фалсафа доктори (PhD))
10. **Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши;** (Абдуллаев Машарип Сайдаматович – Хоразм маъмун академияси ижтимоий-гуманитар фанлар бўлим бошлиғи, санъатшунослик фанлари доктори)
11. **Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши;** (PhD, Техника фанлари фалсафа доктори, Ш.Х. Байматов – Тошкент архитектура-қурилиш институти катта ўқитувчиси)
12. **Техника ва технология соҳасидаги инновациялар;** (PhD, техника фанлари бўйича – Л.Н.Самиев, Тошкент ирригatsия ва қишлоқ хўжалигини механизациялаштириш мухандислари институти доценти)
13. **Физика-математика фанлари ютуқлари;** (С.С. Сайтова – Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Унверситети доценти, PhD – аник фанлар бўйича)
14. **Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар;** (Аллаяров Латиф Камолович – ЎзР ФА Генетика илмий текшириш институтининг фалсафа доктори (PhD))
15. **Кимё фанлари ютуқлари;** (Ш.О. Сайдова – ЎзР ФА Зоология иститутида кичик илмий ходими)
16. **Биология ва экология соҳасидаги инновациялар;** (Мирзаева Адолат Усмонбойевна – ЎзР ФА Ёш олимлар кенгаши Табиий сектор бошлиғи, фалсафа доктори (PhD))

17. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари; (Шарипова Васила Қусиновна – ЎзР
ФА Ботаника институти катта илмий ходими, фалсафа доктори, PhD)

**18. Ўзбекистонда геология-минерология ҳамда география фани соҳасидаги
инновациялар;** (Л.Н.Самиев – Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини
механизатциялаштириш мухандислари институти доценти, PhD – техника фанлари
бўйича)

Нашрга тайёрловчи ва техник муҳаррирлар:

1. О.С. Хайтова – Навоий давлат кончилик институтининг ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири, тарих фанлари номзоди, доцент.
2. М.М. Ваҳобова – Алишер Навоий номидаги ТошДЎТАУ Таълим сифатини назорат қилиш бўлими бош мутахассиси.

Тўпламга Республика Олий ва ўрта маҳсус ўқув юртларида илмий изланишлар олиб бораётган ёш тадқиқотчилар, докторант, педагоглар, мактаб ўқитувчилари, магистрант ва талабаларнинг мақола ва тезислари киритилган.

**Матнларда фойдаланилган мисол, кўчирма ва маълумотлар аниқлиги учун
муаллифлар жавобгардирлар!**

Кириш сўзи

Ҳар бир давлатнинг барқарор тараққиётини таъминлашда асосий пойдевор – инсон омили, унинг интеллектуал салоҳияти билан узвий боғлиқ. Шу нуқтаи назардан, мамлакат аҳолисининг катта қисми замонавий билим ва кўнікмаларга эга ёшлардан иборат эканлигини инобатга олган ҳолда, мазкур қатлам ижтимоий-иқтисодий ва бошқа соҳалардаги манбаатларини ҳимоя қилиш ва кузатилаётган долзарб масалаларнинг назарий ва амалий жиҳатдан ечимини топиш кун тартибидаги мухим вазифадир. Ўтган даврда, бу борада қатор меъёрий-хуқуқий ҳужжатлар ишлаб чиқилган бўлиб, улар ёшлар интилиш ва иқтидорларини қўллаб-қувватлаш, рағбатлантиришга оид, раҳбар кадрларнинг бошқарув салоҳиятини юксалтириш бўйича мустаҳкам тизим ишлаб чиқилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббуси ва амалий кўмаги асосида ёшлар ҳаётига бевосита тааллуқли бўлган жами 40 та Қонун ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинди.

Бу борада яна бир мухим қадам, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан ёшлар таълим-тарбияси учун қўшимча шароитлар яратиш, хотин-қизлар бандлигини оширишга қаратилган комплекс чора-тадбирларни ўз ичига олган 5 та ташаббусни амалиётга жорий этилишидир.

Шунингдек, 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришнинг, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлис Аъзоларига анъанавий мурожаатномасида мамлакатимизда илм-фанны янада равнақ топтириш, ёшларимизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш, рақобатбардош иқтисодиётни шакллантириш борасида бошлаган ишларимизни жадал давом эттириш ва янги, замонавий босқичга кўтариш борасидаги вазифалардан келиб чиқиб, Республикаизнинг иқтидорли талабалар, магистрлар, таянч докторантлар, мустақил изланувчилар, ёш тадқикотчилари ҳамда педагоглар ўртасида Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси ёш олимлар кенгаши “bzone consulting center” мчж ҳамда ўзбекистон интернет тадбиркорлар ва электрон савдо ассоциацияси ташабbusлари билан “Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим ва инновация уйғунлиги” мавзусидаги иккинчи Республика кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференцияси ўтказилаётганлиги юқоридаги фикрларнинг яққол ижобати, - десак муболаға бўлмайди.

Ишончим комилки, бугунги ўтказилаётган “**Янгиланаётган Ўзбекистонда фан, таълим
ва инновация уйғунлиги**” мавзусидаги Республика 9-сон кўп тармоқли илмий масофавий
онлайн конференция 1-қисмида ҳам мамлакатда ёшларга оид давлат сиёсатини амалга
ошириш механизмлари ва нормаларининг имплементациясини янада самарали татбиқ этиш
бўйича илгари сурилган янгича қараш ва таклифлар, шунингдек, халқаро тажрибанинг ўрни
ёшлар манфаатларини мустаҳкамлаш ҳамда ўзаро тажриба алмашишда муҳим омил сифатида
хизмат қиласди.

Мухаррир

II БЎЛИМ. ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

RADIKAL G‘OYALARGA QARSHI KURASHISHNING ASOSLARI.

Boltayeva Dilsora

Ilmiy tadqiqotchi

Hozirgi kunda radikal oqimlar insonlarga ishonchsizlikni uyg‘otish orqali o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirmoqdalar. Insonlardagi ishonchsizlikni yo‘qotish uchun psixolog olimlar tomonidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. O‘zingizdagi ishonchsizlikni davolash va yangi odatiy holatga moslashish uchun vaqt ajrating. O‘zingizning qiziqishlaringiz va qiziqishingizga rioya qilgan holda hayot bilan mashg‘ul bo‘ling. Do‘srlaringiz va oilangiz bilan chalg‘ish uchun ularga murojaat qiling. Ishonchli odamlarning fikr-mulohazalarini oling. Sabr qiling va maqsadlaringiz sari borishda davom eting¹.

Inson ruhiy salomatligining radikallashuvning dastlabki bosqichlariga psixologik buzilishlar, travma, boshqa shaxsiy omillar, ijtimoiy dinamika va atrof-muhit omillari o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi. Olimlar 1970-yillardan boshlab, aholining katta qismida kuzatilayotgan psixopatologiya (ya’ni, ruhiy tartibsizlikka)ga e’tibor qaratishdi. Ushbu tadqiqot sohasining dastlabki yillarida bir nechta psixopatologik xususiyatlar terrorchilarda kuzatildi. Xususan, narsisizm, narsisistik g‘azab va paranoya kasalliklari psixopatiyaga tegishli edi. Umuman olganda, ruhiy kasallik yoki ruhiy salomatlik buzilishlari zo‘ravon ekstremizmida muhim rol o‘ynaydi.

¹ Psychologytoday.com.Melanie Greenberg PhD.,The 3 most common causes of insecurity and how to beat them. Posted Dec 06, 2015.

Radikalizatsiya uchta usul bilan kuzatilgan. 1) Tashxis qo‘yish. Ba’zi bir tashxislar, masalan, nevropsixiatrik kasalliklar shizofreniya yoki autizm spektri buzilishi kasalliklari zo‘ravon ekstremizmga aloqador shaxslarda haddan tashqari ko‘p. 2) Psixologik buzilishlar. Psixologlar qo‘llab-quvvatlovchilar orasida o‘tkazgan tadqiqotlarida zo‘ravonlik yoki zo‘ravonlik harakatlarini amalga oshirishga moyil bo‘lgan shaxslarni aniqladi. Ushbu tadqiqot klinik bo‘lмаган, tashxis qo‘yilmagan, subklinik aholi o‘rtasida o‘rganilgan. 3) Travma. Olimlar travma zo‘ravon ekstremizm uchun xavfli omil bo‘lishi mumkinligini ta’kidladilar. Xavf travma tajribasining o‘zi bilan emas, balki shikastlanish sabablari va natijasi bilan bog‘liq psixologik buzilishlar hisoblanadi. Tashxis qo‘yish, psixologik buzilish, shikastlanish va radikallahuv va zo‘ravonlikni bir-biriga bog‘lash mumkin. Aholining keng qatlamida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlaydigan yoki zo‘ravonlik bilan shug‘ullanadigan shaxslar turli ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklarga duch kelgan, ruhiy jihatdan psixologik kasalliklari mavjud shaxslar hisoblanadi². Ushbu murakkabliklar orasida ruhiy salomatlik yondashuvlarini xabardor qilishning asosiy harakatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Himoya omillarini kuchaytirish va xavflarni kamaytirish uchun tegishli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini aniqlash; zo‘ravonlikda ishtirok etgan shaxslar uchun reabilitatsiya strategiyasini ishlab chiqish; alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslar uchun madaniy va samarali tadbirlarni shakllantirish; mavjud kamchiliklarni va ilg‘or tajribalarni aniqlash uchun doimiy monitoring va baholash jarayonlarini amalga oshirish. Travma ta’sirida bo‘lgan shaxs radikal guruh ta’siri bilan mafkuraviy tashviqotga to‘g‘ridan-

² <https://ec.europa.eu>. Valerie De Marinis. A mental health approach to understanding violent extremism. 3 June, 2019.

to‘g‘ri duchor bo‘lishi mumkin. Bu insonning radikallashuviga asos bo‘ladi. O‘zaro munosabatlarda muammolari bo‘lgan shaxslar ekstremizmga duch kelishi mumkin. Agar shizofreniya bilan og‘rigan odam ruhiy salomatligini davolash uchun psixologlar tomonidan taklif qilinmagan bo‘lsa, radikallashish xavfi ortishi mumkin. Barcha davolash strategiyalari etnik guruhlar va madaniyatlar uchun moslashtirilishi kerak. Tashxis qo‘yish va davolashni ijtimoiy tamg‘alash izolyatsiyani hamda radikallashuv xavfini oshirishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari bilan ehtiyotkorlik bilan ishlashga ehtiyoj bor. Masalan, radikal oqimlarning ommaviy axborot vositalari terroristik harakatga undaydigan ko‘rsatuvlari mavjud. Bu esa inson ruhiy salomatlik buzilishiga olib keladi. Natijada, radikallashuvni oldini olish uchun kerakli yordamdan qo‘chishga olib keladi³.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Psychologytoday.com.Melanie Greenberg Phd.,The 3 most common causes of insecurity and how to beat them. Posted Dec 06, 2015.
2. <https://ec.europa.eu>.Valerie De Marinis.A mental health approach to understanding violent extremism. 3 June, 2019.

³ <https://ec.europa.eu>.Valerie De Marinis.A mental health approach to understanding violent extremism. 3 June, 2019.

MUSTAQILLIK BUYUK NE'MAT!

Xatamova Nargiza Normurodovna

*Jizzax viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy
texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash markazi o'qituvchisi.*

O'zbekiston Respublikasi o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan buyuk tarixiy sana 1991 yil 1-sentyabr xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotida beqiyos o'rinnegallagan, har yili eng ulug', eng aziz bayram sifatida katta shodu-xurramlik bilan nishonlanadigan qutlug' ayyomdir. Bu yil Vatanimiz, mamlakatimiz istiqlolining shonli sanasi – milliy mustaqilligimizning 30 yilligi nishonlanadi.

Har yili 1-sentyabr yurtimizning barcha viloyatlarida, xiyobonlaru – bog'larda katta tantana bilan nishonlanadi. “O'zing mening ulug'lardan ulug'imsan, Vatanim!”- deganda shoir haq so'zni aytgan: odam farzandi uchun vatan bamisolli onaday, bamisolli otaday, bu yorug' olamda bitta, yagona. Vatan borki, biz bormiz. Ona bor mehrini farzandiga ataganiday, Vatan boshida kulgan quyosh kabi bizni o'z harorati og'ushida erkelaydi. Uning bag'rida kulgan bahor - bizning bahorimiz, Vatan erishgan zafar - bizning ko'chamizda bayramlarni boshlaydi. Uning olamda qozongan obro'-e'tibori, mavqedan har birimizning chehramizda nur, ko'zimizda chaqmoq. U bor ekan, boshimiz tog'larday sarbaland, qaddimiz qoyalarday tik. Ona-O'zbekistonimiz biz uchun shunday tengsiz, yagona, e'zozli ma'vo, tanho

Vatan, bebaho qadriyat.

Vatanga sadoqat, ona-yurtga muhabbat hissi kishi qalbidagi eng bebahо tuyg'udir. Shoirlar ona-Vatanga sadoqat mavzusini otashin misralarda madh etsa, iste'dodli hofizlar buni dilbar navo, soxir ovoz ila kuylaydi. Shunisi ham borki, Vatan haqida so'z aytmoq, ona-yurtga muhabbatni tarannum etmoq oson yumush emas. Buning o'ziga yarasha mas'uliyati, yuki bor. Betakror san'at asarlari, yosh avlod qalbida o'zi tug'ilib-o'sgan makonini ulug'lash va uni ko'z qorachig'idek asrashga intilish, his-tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Vatan! Bu muqaddas so'z zamirida qanchalik ilohiy kuch-qudrat, ma'no, beqiyos da'vat mujassam ekanligini hech kim, hech qachon to'la ifoda etolmasa kerak. Biz kindik qonimiz to'kilgan Vatan, ona tuproq bilan faxrlanamiz, e'zozlaymiz. Uning nomini eshitgan zahoti qalbimiz to'lqinlanadi, bir olam g'ururga to'ladi. Vatan yagonadir, vatan bittadir. Dunyoda o'zbekman degan har bir insonning asl vatani shu aziz tuproqdir. Bu muqaddas zaminda ulug' bobokalonlarimiz hoki yotibdi. Dinimizda iymon, qalblarda «Vatanni sevmoqlik — iymondandir» degan hikmat muhrlanib qolgan. Vatanni quruq madh etish boshqa-yu, vatan tuyg'usini qalbdan his etish boshqa. Uning muqaddasligi ana shu holda namoyon bo'ladi. Vatan yurakkadir. Inson uchun yurak nechog'li zarur va aziz bo'lsa, vatan undan-da zarur va azizroqdir. Azizlar aytmishlarki, "Tuprog'iga keldik, tuprog'iga keturmiz". Binobarin, ozod va obod vatanda pok odamlar yashashi kishilik jamiyatining azaliy orzusi, aql va idrokning, qalbning eng totli, mo''jizaviy tantanasidir. Bu tantana yuz bersa, shaksiz, vatanga oliv maqom va benazir xoslik bag'ishlaydi. Uni yer yuzidagi mayoqda aylantiradi. Illo, yurtboshimiz bizdan ana shu yo'ldan yurishimizni, sobit va qat'iy qadam tashlashimizni istaydi. Bu yo'l baxtli istiqbol, komil insonlar qo'nim topadigan, hech

kimdan kam qilmaydigan, vatanimiz mazmunini yuksaltiradigan fikratdir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida O’zbekiston fuqarolari o’zlarining nasl-nasabi, irqi, millati va boshqa holatlaridan qat’iy nazar teng huquqga egadirlar deb yozib qo’yilgan. Azizlar, ozod va obod O’zbekistonni sevmaslik, sog’inmaslik, qadrlamaslik, unga mehr qo’ymaslik, u bilan faxrlanmaslik, zarur bo’lsa, uning sha’nini himoya qilmaslik mumkin emas. Vatan hamisha bizga kuch va harorat bag’ishlab turadi. U ona kabi muqaddasdir. O’zbekiston zamini, ona tuprog’imiz har birimiz uchun aziz va muqaddas! Mustaqillik hayotimizga ko’plab yangiliklar olib kelmoqda. G’olibona bosib o’tilgan 30 yillik yo’lga nazar solsak, bu o’zgarishlar yaqqol ko’zga tashlanadi. Milliy istiqlol sharofati tufayli o’zligini tanib, qadr-qimmatini topib, qad rostlayotgan, o’ziga xos taraqqiyot va yuksalish yo’llarini belgilab, istiqbolning ko’z ilg’amas yorqin ufqlari sari muzaffar odimlar tashlab borayotgan O’zbekistonimizning jahon uzra e’zozu e’tibor, shonu shuhratga sazovor bo’lib, qanchalab xorijiy ellar, davlatlar bilan turli-tuman aloqalarda, hamkoru hamjihatliklarda bo’lib kelayotganligi, teran, baquvvat ildizlari asrlar qa’riga borib tutashuvchi asl milliy qadriyatlarimiz, sharqona urf-odatlarimiz, ajoyib-g’aroyib an’analalarimiz, go’zal udumlarimiz, dinu iymonimiz, e’tiqodu e’timodimiz, qayta tiklanganligi, hayotda o’z o’rnini topayotganligi hamda xalqimizning bebaho ma’naviy mulkiga aylanib borayotganligi – bular bugun kechayotgan dorilamon davrimizning betakror, beqiyos xarakterli belgilaridandir. Istiqlol-o’zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolarining o’zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o’rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiyl mezonzlar asosida yashash demakdir. Mana 30 yildirki, ona yurtimiz bag’rida mazmuni va ko’lami asrlarga qiyos qilgulik ulug’vor, hayratomuz o’zgarishlar, salmoqli ijtimoiy siljishlar

yuz bermoqda, xalqimizning turmush tarzi, ma’naviy qiyofasi boyib, sifat jihatidan o’zgarib, kamalak ranglaridek yangi jilolar kashf etib bormoqda. Bu esa, shubhasiz, baxtiyor zamondoshlarimizning olg’a tomon harakatlarida, intilishlarida, ularning yuksak ezgu maqsadlar sari xayrli izlanishlarida o’z ijobiy samarasini namoyon etmoqda. Milliy istiqlol bamisoli sehrli mo’jiza yanglig’ berkilib qolgan buloqlar ko’zini ochib, ming-minglab tashna lablarga obi hayot ato etganidek, yurtimiz odamlarining ham yuzlariga quvonch, ko’zlariga ziyo bag’ishlab, emin-erkin qilib, ularning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida javlon urishlari, o’z iste’dodu iqtidorlarini, ijodkorliklarini to’la-to’kis namoyon etishlari uchun keng ufqlar ochib berdi. Mustaqillik yillarida Respublikamizning barcha joylarida shahar va qishloqlarida, turli sohalarda ancha ishlar qilindi. Har jihatdan o’zini anglayotgan millat ulug’ bunyodkorliklar qilishga kirishib ketdi. O’tgan 30 yil ichida O’zbekiston tanib bo’lmas darajada o’zgardi. Nafaqat ko’chalar va xiyobonlar, bu davrda jamiyat va odamlar ham o’zgarib, yurtdoshdarimiz erkin fikrlay boshladilar. Har kimning o’z vazifasiga nisbatan mas’uliyati ham ortdi. Shu bilan birga yoshlarda Vatanga sadoqat hissi kuchaydi. Inson uchun ozodlikdan qadrli ne’mat yo’q. Dunyodagi jamiki bunyodkorlik va yaratuvchanlikning asosi – ozodlikdir. Tarixan qisqa bir davrda, avvalo el-yurtimizning xohish-irodasi, kuch-qudrati, mashaqqatlari va bunyodkorona mehnati evaziga jahon xaritasida yangi, o’z kuchi va salohiyatiga tayangan, bugun taraqqiyot yo’lidan barqaror sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan mustaqil, suveren O’zbekiston davlatining paydo bo’lishi, hech shubhasiz, xalqimizning tarixiy g’alabasidir

ІІІ БЎЛИМ. ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

TARIX FANI O'QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI

Namangan viloyati

To'raqo'rg'on tumani

33 -sonli maktabning tarix fani o'qituvchisi

Egamberdiyeva Umida Abdukarimovna

Annotatsiya:Hozirgi kunda tarix fanlarini o`qitishning muhim muammolaridan biri bu -maqsadli ta'lif-tarbiyani yo`lga qo`yishdir.Ta'lif jarayonida ilg`or pedagogik uslub va texnologiyalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lif resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish borasida ilgari surilgan vazifalar bugungi kunda ta'lifni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda ushbu maqolada tarix fani o'qituvchisining innovatsion faoliyatni to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar:pedagog, metodik qo'llanma, darslik, mashg`ulot, interfaol usullar.

Tarix fanlarini o`qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko`nikma va malakani shakllantirish orqali o`quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni maqsad qilib olinadi. Tarix fanini o`qitishda quyidagi innovatsion faoliyatga e'tibor berish tavsiya qilinadi:

Mashg`ulot vositalari

Pedagog uchun: O`quv-metodik qo'llanma, metodik tavsiya, dars ishlanmasi, o`quv dasturi, dars rejasi.

Talaba uchun: Darslik, o`quv qo'llanma, jadvallar, tarqatma materiallar, yo`l-yo`riqli texnologik xaritalar, tipik xatolar xaritasi, topshiriq varaqasi, interfaol usullar.

Mashg`ulot o`tkazish uchun: Plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual, texnik va real vositalarbo`lishi mumkin.

O`quv maqsadlari:

Fanning o`quv maqsadlari tarmoq standartining har bir ixtisoslik bo`yicha maxsus

talablar, ko`nikma va bilimlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilishi lozim, ya`ni tarmoq standarti bilan standartlashtirilgan o`quv dasturlari to`la mos kelishi kerak. O`qitishda o`quv maqsadlarini qo`yish uslubi o`ziga xos xususiyatga ega. Bu o`quvchilar harakatida ifodalanadigan va aniq ko`rinadigan natijalar orqali belgilanadi. O`quv maqsadlarini aniqlash, o`qitishni qayta takrorlash imkoniga ega bo`lish uchun har bir maqsadga erishish me'zonini bilish kerak, ya`ni ta`lim maqsadi shunday qo`llanishi kerakki, unga erishganlik haqida aniq xulosa chiqarish mumkin bo`lsin.

Maqsadlarning qo`yilishi:

Umumiy maqsadlar - DTS, o`quv dasturidan o`tiladigan mavzu yuzasidan talabalarda qanday bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish muhimligi aniqlashtirilib, shu asosida mashg`ulot maqsadlari belgilab olinadi.

Pedagog maqsadi:

1-ta`limiy mashg`ulot jarayonida talabalarda dunyoqarashni kengaytirish, bilish faoliyati, bilimlarni amaliyotda qo`llash, ma'lum ko`nikma va malakalarni shakllantirish;

2-tarbiyaviy mashg`ulot jarayonida talabalarda mustaqillik, o`zaro munosabat, axloqiy yo`nalishlarni, mustaqil faollikka asos bo`luvchi motivlarni shakllantirish;

3-rivojlantiruvchi mashg`ulot jarayonida talabalarda diqqat, nutq, taqqoslash, refleksiya, aniq yechimlarni izlab topish ko`nikmalarini, mashg`ulotga nisbatan qiziqishni rivojlantirish bilan belgilanadi.

O`quv maqsadlari sohalari:

Kognitiv -bilishga oid soha. O`rganilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berish, o`zlashtirilgan bilimlarni mustaqil to`la anglash, ularni oldin o`rganilgan uslub, usullar bilan uyg`unlashtirilib tasavvur etishgacha bo`lgan muammolarni hal etilishini o`z ichiga oladi.

Affektiv-hissiyotga oid soha. Oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyat yo`nalish va munosabatlarini o`zlashtirishga tayyor bo`lish, talabalarni atrof-muhitga nisbatan hissiy-shaxsiy munosabatda bo`lishini shakllantiruvchi maqsadlar kiradi.

Psixomotor-harakatga oid soha. U yoki bu harakat faoliyatida, harakat

yo`nalishlarini tez o`zgartirish, asab-muskullarni muvoffiqlashtirib boshqarishni shakllantirishga oid maqsadlar kiradi.

Adabiyotlar:

- 1.Ochilov M. «Yangi pedagogik texnologiyalar» /Qo`llanma. -Qarshi: Nasaf, 2000.
- 2.Fuzailova G.S, Rahmatullayeva O.R Tarix fanidan o`quv qo`llanma. -T.:TDPU, 2012. - 200 b.
- 3.Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliv o`quv yurtidagi zamonaviy ta'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo`llanma /“Zamonaviy ta'lim texnologiyalari” turkumi. - T.: TDIU, 2009.

IV БЎЛИМ. ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ONA TILI DARSLARINING MAQSADGA KO`RA TURLARI

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti qoshidagi alademik litsey
ona tili va adabiyot o'qituvchisi
Naziraxon Xudoyberdiyeva*

Darsni to'g'ri tashkil etish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Ona tili darslari madsadga ko'ra to'rt turga ajratiladi: yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash, o'tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish, bilim va malakalarni umumlashtiruvchi, bilim va malakalarni tekshirish darslari.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari ta'lim jarayonining eng ko'p qismini ishg'ol etadi. Bu dars turining asosiy vazifasi tilning fonetik, leksik, so'z

yasash, grammatik tomonlariga oid qonuniyatlarini, orfoepiya, orfografiya, punktuatsiya, uslubiyatga doir qoidalarni o'quvchilarga o'rgatish va ularni datslabki mustahkamlashdir. Yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi vazifalar yechiladi:

- o'rgatilayotgan grammatik bilimlarning asosiy maqsadini anglash, shu bilimlarning nutq faoliyatidagi rolini fahmlash;
- mavzuga oid bilimlarning umumiy qurilishini idrok etish;
- o'rganilgan bilimni qayta xotirlash yo'lini, uni amaliyotda qo'llash usulini egallash.

Yangi bilimlarni o'rgatishda deduksiya va induksiya usulidan foydalilanildi. Hozirgi dastur va darsliklarda yangi bilimni asosan induksiya usuli bilan o'rgatish ko'zda tutilgan. Ma'lumki, deduksiya usulida umumiyligidan xususiylikka qarab boriladi. Induksiya usulida esa xususiylikdan umumiylilikka qarab boriladi. Masalan, 8-sinfda ega va uning ifodalanishini tushuntirish uchun quyidagi gaplar tahlil qilinadi:

Akademik litseylarda gap bo'laklari, jumladan, ega va uning ifodalanishi mavzusi o'tiladi. Shunda quyidagi gaplarni tahlil qilish mumkin. Daraxtlar choyxona sahnidagi gulzorga o'xshar edi. Biz quvonchli kunlarga yetib keldik. O'n – beshdan katta. O'qimoq – o'rganmoq. To'g'ri o'zadi, egri to'zadi. Bu gaplar tahlil qilinib, har bir gapning egasi topiladi, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalangani aytiladi, so'roqlari aniqlanadi. Shu orqali eganing umumiy ta'rifi keltirib chiqariladi.

Yangi materialni tushuntirishda o'quvchilarning oldin o'rgangan bilimlari, malakalariga tayanish o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin hozirlaydi. O'rgatilayotgan mavzuga aloqador bilimlarni takrorlash yangi bilimlarni ongli idrok etishning asosiy omili hisoblanadi.

Yangi materialni o’rgatish va mustahkamlash darslari o’z ichida ikki turga bo’linadi:

1.O’tilganlar takrorlangach, yangi o’quv materialini o’rgatish bosqichi boshlanadigan dars. Darsning bu turida o’rgatiladigan grammatik orfografik qoida, ta’riflarning mazmunidan kelib chiqib, mustaqil ish o’tkaziladi, topshiriqning natijasi jamoada tekshiriladi, tahlil qilinadi va unga tayanib o’quv materiali bayon qilinadi.

2.Yangi o’quv materialini o’rgatishdan boshlanadigan dars. Bu dars o’quvchilarning mustaqil faoliyatidan boshlanadi. O’quvchilar bajargan topshiriq va qoidalar ustida suhbat o’tkaziladi. O’quvchi o’quvchilarning xulosalariga, zarur bo’lsa, o’zgarishlar kiritadi va yakuniy xulosa chiqaradi. Keyin mustahkamlashga o’tiladi. O’tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari. Ona tilidan o’rgatilgan bilimlarning puxtaligi, ko’p jihatdan, o’qituvchining takrorlash darslarini tashkil qilishiga bog’liq. Bunday darslarda o’quvchi oldin o’rgatilgan nazariy bilimlarga, grammatik-orfografik qoidalarga takroriy qaytadi. Mashq paytida o’quvchi o’zi o’rgangan qoida asosida faoliyat ko’rsatadi. Takrorlash darslarida oldin idrok etilgan bilimlar qayta tasavvur etiladi. Takrorlash darslari, bir tomonidan, turli mashqlar yordamida o’quvchilarda o’rgatilgan materiallar doirasida malaka hosil qilishiga qaratilsa, ikkinchi tomonidan, o’quvchilarning bilimlarini aniqlashtirish, kengaytirishga xizmat qiladi.

Takrorlash darslari yangi materialni o’rgatish darslaridan tubdan farq qiladi. Yangi materialni o’rgatish darslarida o’quvchilar anglab yetmagan, ular uchun mavhum bo’lgan til hodisalari ustida o’tkazilsa, takrorlash darslari esa o’quvchilar o’rgatilgan, ammo to’lig’icha o’zlashtirilmagan qonun-qoidalarga tayanadi, o’rganilgan bilimlarga rioya qilib faoliyat ko’rsatadi.

Takrorlash darslarida ko'proq turli-tuman mashqlardan foydalaniladi. O'rgatilgan qonun-qoidalarga oid til dalillari ustida o'quvchilarning faoliyati tashkil etiladi. Bu dars tipining yana bir muhim belgisi o'quvchilarda malaka hosil qilishdir. Takrorlash darsining eng muhim xususiyati uning yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslarining davomi, unga bog'lab tashkil etilishidir.

Bilim va malakalarni umumlashtirish darslari. Bunday darslarda ma'lum mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar qayta tizimga keltiriladi, mavzu yoki bo'lim yuzasidan yakuniy xulosalar chiqariladi. Bunday darslar o'rganilgan bilim, hosil qilingan malakalarni tizimga keltirish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy shakli hisobanadi. Ta'lim jarayonida bilimlar emiperik va tushuncha darajasida umumlashtiriladi. Emiperik umumlashtirishda o'rgatilayotgan hodisaning his qilingan xususiyatlari o'zaro taqqoslanadi, ikkilamchi bilimlar hisobga olinmaydi, o'xshash belgilar umumiylashtiriladi. Emiperik umumlashtirishda o'rgatilayotgan hodisaning his qilingan xususiyatlari o'zaro taqqoslanadi, ikkilamchi bilimlar hisobga olinmaydi, o'xshash belgilar umumiylashtiriladi.

Tushuncha darajasida umumlashtirishda ma'lum grammatik hodisaning his qilinayotgan konkret belgilari emas, balki uning umumiylashtirishda nazarda tutiladi. Bunda asos qilib olingan xususiyatlari o'rganilgan hodisalarning bir qanchasi uchun mushtarak hisoblanadi.

Bilim va malakalarni tekshirish darslari. Bu dars tipi ona tili ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunday darslarda o'quvchilarning bilim va malakalarini qaydarajada egallaganliklari aniqlanadi, o'tilgan mavzular bo'yicha bundan keyin qilinadigan ishlar belgilab olinadi, o'quvchilarga o'z bilimlaridagi yetishmovchiliklar ko'rsatiladi. Bunday darslarga diktant, insho va bayon yozdiriladigan darslar, test sinovi o'tkaziladigan darslar kiradi.

Ona tili o'qitish metodlari. Ona tili darslarida qo'llanadigan o'qitish metodlari nafaqat bilimlarni bayon qilish yoki uni mustahkamlashga xizmat qilishi, balki o'quvchilarning mustaqil bilim olishni ham hisobga olish, ta'lim jarayoniga izlanuvchanlik va tadqiqotchilik unsurlarini qo'shish orqali ulrni ijodiy faoliyatiga tayyorlash lozim. Ana shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, ta'lim metodlarini ikki katta guruhga ajratsa bo'ladi:

1.O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

2.O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar.

O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarni:

1.Bilimlarni tayyor holda bayon etish;

2.Bilimlarini muammoli yo'l bilan bayon qilish metodlariga ajratsa bo'ladi.

O'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlar o'z navbatida qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va izlashga asoslangan metodlarga bo'linadi.

Bilimlarni tayyor holda bayon qilish metodi. Bu metod ona tili darslarida eng ko'p tarqalgan metodlardan biridir. Bayon yordamida murakkabroq, ayniqsa, o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lмаган ma'lumotlar izohланади. Ko'pincha til hodisalarining mohiyatini tushuntirish, o'quvchilar bilimidagi bo'sh tomonlarni to'ldirish, qo'shimcha ma'lumot berish, savollarga javob qaytarish maqsadida bu metodga murojaat qilinadi. Bu metod ham ijobiy, ham salbiy tomonlarga ega. Uning ijobiy tomonlaridan biri vaqtini tejash imkoniyatini tug'diradi. Bu o'z navbatida bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash va ko'nikmalarni mustahkamlash va takrorlashga ajratilgan vaqt miqdorini ko'paytiradi. Bilimlarni tayyor holda bayon qilishining salbiy oqibatlaridan biri esa bu jarayonda o'quvchining fikrlash faoliyatni ma'lum darajada chegaralanishidir. Ko'p hollarda o'quvchi ta'lim jarayonining faqat

tinglovchisiga aylanib qolishi mumkin. Bu metoddan foydalanish uchun quyidagilarga amal qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- O'qituvchining nutq madaniyatiga e'tiborini kuchaytirish.O'qituvchining nutqi mantiqiy talablarga javob berishi shart: Sodda, mazmunli, ifodali, izchil nutq o'quvchilarda bilimga nisbatan kuchli qiziqish uyg'otadi;

- O'quv materialini qatiy bir reja asosida bayon qilish (qat'iy reja asosida bayon qilingan fikrlarni o'zlashtirish o'quvchi uchun ancha qulay):

- Bilimlarni tayyor holda bayon qilish, ishontirish va asoslash. Ishontirish va asoslash o'rgatilayotgan materialga qiziqish uyg'otadi.

Yuqorida sanalganlardan tashqari til hodisalarini sharhlash maqsadida keltiriladigan misollarning ilmiy, badiiy va tarbiyaviy yo'nalishda bo'lismashini ta'minlash, o'qituvchi bayoni bilan namoyish etiladigan vositalarni bir-biriga muvofiqlashtirish o'quvchining faollik darajasini oshiradi.

Ona tili darslarida bilimlarni muammoli yo'l bilan bayon qilish metodi. Ma'lumki, izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sermahsul faoliyatdir. O'quvchi til hodisalarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlasa, aktiv ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu metod shaxs va uning ijtimoiy faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ona tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

- 1.Tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish.
- 2.Til hodisalarini qarama-qarshi qo'yish va taqqoslash asosida muammoli vaziyat yaratish.
- 3.Til hodisalarini umumlashtirish orqali muammoli vaziyat yaratish.

4.Berilgan matning mazmunidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratish.

Qayta xotirlashga asoslangan metodlar. Mazkur metod o'quvchi oldida muayyan bir qiyinchilik yaratmaydi va u tayyor o'quv materiali bilan ish ko'radi. O'rganilgan ish hodisalarini xotirada tiklash, topshiriqni to'laligicha muayyan andaza yoki namunaga qarab bajarish kabi topshiriqlar shunday topshiriqlar sirasiga kiradi.

Qisman izlanuvchanlik metodi. Qisman izlanuvchanlik metodi tarkibida qayta xotirlash asosiy o'rinni egallaydi. Chunki o'quvchi ona tilidan egallangan bilimlariga tayanmay turib, uni yangi sharoitda qo'llay olmaydi. Ona tili mashg'ulotlarida bajariladigan qator mustaqil ish turlari:

- a) nuqtalar o'rniga zarur harflar, kelishik qo'shimchalari, so'zlarni topib qo'yish;
- b) ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi, qarama-qarshi ma'noli so'z bilan almashtirish;
- v) berilgan gaplar yoki matnlarning mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish;
- g) berilgan tayanch so'zlar yoki so'z birikmalaridan foydalanib, gaplar yoki matnlar tuzish o'quvchilardan qisman izlanishni talab etadi.

Izlanishga asoslangan metodlar. Izlanish til materiallarini ijodiy faoliyat ko'rsatish yo'li bilan o'rgatish demakdir. Shubhasiz, o'quvchi ona tili mashg'ulotlarida ma'lum bir yangilik kashf etmaydi, balki berilgan ma'lumot mazmunini ijodiy yo'l bilan o'rganadi. Bu metod o'quvchidan oldin o'rgatilganlarni tamoman yangi sharoitda qo'llashni talab etadi. Ona tili mashg'ulotlarida yoziladigan insholar, o'qilgan badiiy asarga taqriz yozish, maqola yozish, ilmiy ma'ruzalar tayyorlash o'quvchidan hech qanday andaza yoki tashqi yordam olmasdan bajariladigan asosiy ishlardir.

Foydalaniłgan adabiyotlar

- 1.Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O’zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) . Toshkent. “Sharq” nashriyot–matbaa konserni. **1999-yil, 1-maxsus son.**
- 2.O’zbekiston Pespublikasining “Ta’lim to’g’risidagi Qonuni”. 1997-y 29-avgust.
- 3.B.To’xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.
- 4.A.G’ulomov, M.Qodirov “Ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent. “Universitet” nashriyoti. 2001-y.
5. “O’zbek tilining asosiy imlo qoydaları” Toshkent. “O’qituvchi” nashriyoti 1995-y.
- 6.Y.G’ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedov. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” Toshkent. “O’qituvchi” nashriyoti 1975-y.
- 7.O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyev “Ona tili didaktikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi nashriyoti” 2005-y.
- 8.N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z. Jo’raboyeva. Ona tili. 5 – sinf uchun darslik. Toshkent “Ma’naviyat” **2004-** y.
- 9.Ne’matov, A. G’ulomov, M. Qodirov, M.Abduraimova. Ona tili. 6 – sinf uchun darslik. Toshkent. “O’qituvchi” **2003-** y.
- 10.Ne’matov, A. G’ulomov, M.Abduraimova, M. Qodirov. Ona tili. 7 – sinf uchun darslik. Toshkent. “O’qituvchi” **2000-** y.

**THE PROBLEMS OF IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS
OF TEACHING ENGLISH LANGUAGES IN SECONDARY SCHOOLS**

ISMATOVA FERUZA

SHUKUROVA SHOHSANAM

***Faculty of English Junior
Courses***

Today, English language is one of the most widely spoken and used and acknowledged as a global language. Learning English improve the individual's status and opportunities in education , technology, global trades, and business. Moreover teaching English language has been an important issue in countries where English is not their first language , so learning second language is difficult for learners because they cannot use English in real life situations , because they should always learn sentences in textbooks not in a real environment. Therefore , teachers should always look for usefull strategies to reduce the difficulties of teaching English languge.Furthermore, learning and teaching foreign language is upgradeing . Also, the more you learn English, the harder it is for people to learn it. Especially , a pupil who went to the secondary school for learning English face some basic problems:

- * SPELLING
- * PRONUNCIATION
- * GRAMMAR
- * VOCABULARY

* SENTENCE FORMATION

Certainly, each people who learning English language faced these problems. How can they overcome these difficulties ?

Firstly, You will need to memorize more words and their structure to solve the spelling problem. Not only this method but also many other methods can be used. As well as, to solve grammar problems, we need to study more books and rules , and compare these rules with our own language . To overcome vocabulary problems , you need to read more English books, articles, magazines and memorize more new words.

Xulosa o`rnida shuni aytmoqchimanki ota-onaga nafaqat pedagogik balki psixologik bilimlar ham zarur, chunki shaxs shakllanishida krizs davrlarini boshdan kechiradi. Bu krizis davrlarida bolada turli xil o`zgarishlar kuzatiladi, masalan 3 yosh krizsida bola tevarak-atofiga, ota-onaga taqlid qila boshlaydi, bu vaqtı bola berilgan odob-axloq qoidalari yoki nasixatlarni emas balki ota-onsa nima qilsa shuni takrorlaydi, ko`p hollarda bolaga yolg`on gapirish yomon ekanligini uqtiramiz-u lekin bola ko`z o`ngida o`zimiz yolg`on gapiramiz va shu orqali bilmasdan bolada yolg`on so`zlar ishlatish mumkin ekan degan fikrni uyg`otamiz.

Bunday vaqtarda ota-onsa bolaning yosh davrlari xususiyati, kommunikativ muloqot haqidagi bilimlarga ega bo`lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Psixologiyadan maruzalar matni. Toshkent.1999y
2. “Umumiy psixologiya” M.V.Voxidov. Toshkent. 1992 yil.
- 3.” Umumiy psixologiya” A.V.Petrovskiy. Moskva.1976
- 4.” Bolalar psixologiyasi ocherklari” P.I.Leventuev. A.A.Askarxo’jaev.

BOLA TARBIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATARI

Samarkand viloyati Toyloq tumani 27- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori.

Jo'raqulova Munira Suyunovna

Annotatsiya: Jamiyatda o'sib kelayotgan har bir yosh avlodning ertangi kuni qanday kelishi, hamda uning ham jismoniy ham ma'naviy jihatdan yetuklik darajasiga ko'tarilishi uning psixologiyasiga bog'liq. Shuning uchun ham hozirda bolalarni oilada qanday muhitda tarbiya topayotganligi barchamiz uchun juda dolzarb mavzudir.

Kalit so'zlar: Psixika, go'daklik, bolalik, yetuklik, qarilik, genetikpsixologiya, emperik usul.

Ijtimoiy hayotimizdagi o'zgarishlar mustaqil respublikamizdagi demokratiyaning tantanasi, huquqiy davlat tizimiga intilish psixologiyaning qonuniyatları va ilmiy materiallarini o'rganish hamda ulardan turmushda foydalanishni talab qiladi. Psixologiya fani tarmoqlaridan biri – bolalar psixologiyasidir. Bolalar psixologiyasida bolaning tug'ilgan paytidan boshlab , to maktab yoshiga yetgunga qadar psixik jihatdan taraqqiy etishi qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarning tarkib topishini o'rganadigan fandir. Bola inson sifatida tashqi jihatdan katta yoshli odamlarga o'xshasa ham , o'zining psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarning mazmuni jihatidan katta yoshli odamlardan keskin farq qiladi.

Hozirgi davrda butun dunyoda boshqa fanlar bilan aloqadorlikda psixologiya fani ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bir necha yillardan buyon psixologiyani bir nechta tarmoqlarga bo'lib o'rganib kelinmoqda. Shulardan biri “Bolalar

psixologiyasi”dir. Bolalar psixologiyasi - psixologiya fanining alohida tarmog’i bo’lib, u turli yosh davrlarida bola psixik taraqqiyotining qonuniyatlarini, shuningdek, bir yosh bosqichida boshqasiga o’tish qonuniyatlarini o’rganadi. Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e’tibori tug’ulgandan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongning qanday rivojlanishiga qaratilgan. D.B.Elkonin yozganidek, bola jamiyat a’zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyatii go’daklikdan yetulik davrigacha murakkabllashib va takomillashib boradi. Ushbu jarayonning o’ziga xos xususiyatlari, uning qonuniyatlarini bolalar psixologiyasi tadqiq etadi.

Bolalar yoshiga, shaxsiga va rivojlanish bosqichiga qarab turli xil jismoniy va hissiy ehtiyojlarga ega. Rivojlanish psixologiyasi, pediatriya va nevrologiya fanlari bo'yicha o'nlab yillar davomida olib borilgan izlanishlar dastlabki besh yil bolaning natijalari uchun juda muhim ekanligiga asoslandi. Bola ulg'aygach, ular atrof-muhitni o'rganish, og'zaki va mulohaza yuritish ko'nikmalarini o'rganishadi, boshqalar bilan muloqot qilish va oxir-oqibat o'z oilalaridan mustaqillikni himoya qilish bosqichlariga o'tishadi.

So'nggi bir necha o'n yilliklar ichida balog'at yoshi pasaymoqda va bu bolalikning tobora erta yakunlanishiga olib kelmoqda. Ham genetik, ham atrof-muhit omillari balog'at boshlanishiga ta'sir qiladi va kuzatuvchilarning fikricha, jinsiy balog'atga yetish vaqtি qaysidir darajada bolalikni baholashni anglatishi mumkin va balog'at yoshining tezlashish o'lchov bo'lishi mumkin.

Bola rivojlanishini tushunish bu - bolalarni tug'ilishdan o'spirinlik davriga qadar bo'lgan tezkor jismoniy va ruhiy o'zgarishlar ko'pincha ota-onalar va yaqinlarni ularga qanday qilib eng yaxshi tarzda jalb qilish va qanday yordam berish kerakligi haqida savol tug'diradi. Bolaning rivojlanish jarayoni sezgi ongidan va nozik vosita ko'nikmalaridan tortib, til va ijtimoiylashuvgacha bo'lgan hamma narsani o'z ichiga oladi. Rivojlanishning rivojlanishiga bolaning irsiy tarkibi, atrof-muhit va bilim qobiliyatlari kuchli ta'sir qiladi. Ota-onalar va tibbiyot mutaxassislari ko'pincha rivojlanish bosqichlarini, masalan bola gapirishni yoki o'qishni o'rganishni o'rganib, o'z tengdoshlariga nisbatan o'sishini kuzatish uchun foydalanadilar. Ushbu bosqichlar ba'zi holatlarda bolada har qanday nogironlik yoki xatti-harakatlardagi muammolarni aniqlashga yordam beradi, shuning uchun ularni erta hal qilish mumkin, ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ko'rsatkichlar bolaning yakuniy qobiliyatiga ta'sir etmasligi mumkin.

Barchamizga tarixdan ma'lumki, yevropa olimlari bilan bir qatorda o'tgan ajdodlarimiz bolalar va yoshlар psixologiyasining muammolari izchil va atroficha muayyan yo'nalishda, ma'lum konsepsiya asosida o'rganmagan bo'lsa ham, ularning asarlarida mazkur holatlarning aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishlari to'g'risida qimmatli fikrlar keltirilgan. Misol tariqasida, Alisher Navoiyning "Xazoyin-ul maoniy", "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlarida yetuk, barkamol insonning axloqi, ma'naviyati, odamlarga munosabati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritigan. Ana shu psixologik kategoriyalar ijtimoiyadolat qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Yusuf Xos Hojibning "Qutatg'u bilig" asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Bundan tashqari

Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Masalalar mohiyati” kabi asarlarida insonni tarbiyalash borasidagi barcha ko’rsatmalar berib o’tilgan. Bundan ko’rinib turibdiki bizning ajdodlarimiz davlatni yuksaltirish uchun avvalo o’sib kelayotgan avlodni to’g’ri tarbiyalash bilangina erishish mumkinligni ta’kidlab o’tganlar.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ota-onalar bolalarga psixologik jihatdan yordam va ko’mak berishsa ular jamiyatda o’z so’zi va o’rniga ega bo’ladigan yetuk shaxs bo’lib yetishishadi. Bu esa o’z navbatida jamiyatimizning ertangi kunini belgilab beradigan eng muhim ma’naviy kuchdir. Uni har tomonlama qo’llab quvvatlash va amalgam oshirish uchun albatta birinchi navbatda har bir oilada o’ziga xos psixologik muhit va sharoit yaratish lozim. Shundagina jamiyatda o’sib kelayotan har bir yosh avlod ertangi kelajakda albatta o’z o’rniga ega bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G’oziyev E.G’ Umumiyl psixologiya. T.: O’qituvchi, 2010. 75-b
 2. Nishanova Z.T., Flalimova, G. Turg’unboyeva A.G‘.,X.asranboyeva M. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi; T-2017 195-b
- 3 By Kendra Cherry, Medically reviewed by Aron Janssen, MD. Child Psychology and Development on November 19, 2019.

BARKAMOL AVLOD SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

Samarkand viloyati Toyloq tumani 27- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori.

Jo'raqulova Munira Suyunovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab amaliyotchi psixologlarining yoshlar dunyoqarashida ona vatan, xalq va uning tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalarga hurmat nazari bilan qarash hamda yoshlar ongida millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy salohiyat, Vatan qayg'usi va shu kabi tushunchalar singdirib borilishining psixologik jihatlari haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: g'oya, barkamol shaxs, ruhiy olam, qadriyat, asos, ong, fazilat.

Barkamol shaxsni shakllantirishda uzlucksiz ta'llim tizimining o'rni va ahamiyati benihoyadir. Shu jihatdan ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturining milliy modelida shaxsni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Demak, bugungi kunda barkamol avlod shaxsini voyaga yetkazish davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda. Sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, sog'lom e'tiqod, barkamollik kabilar shaxs faoliyatining asosiga aylanadi.

Shaxs faoliyatining mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayotni yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar asosiylar o'rinnegallaydi. Shu sababli bugungi yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona vatan, xalq va uning

tarixiy ildizlari asosidagi boy milliy ma'naviy merosimiz haqidagi ma'lumotlar rivojlanib bormoqda.

Yoshlar ongida millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy salohiyat, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi va shu kabi tushunchalar singdirib borish ularning milliy dunyoqarashini kengaytirish tarbiya jarayonining asosiy omillaridan hisoblanadi. Ularning o'z faoliyatida jamiyat va davlatning ma'naviy muhitiga munosib hissa qo'shishni o'zining muqaddas burchi deb bilib, iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, do'stlik insonga cheksiz muhabbat, muruvvatlilik, qanoatlilik, sabr toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarni o'zlarida mujassam etmoqdalar. Bu mislsiz tengi yo'q ishda psixologlarning, ta'lim sohasida xizmati benihoyat kattadir. Chunki, mакtab psixologi o'quvchilarni barkamol shaxs bo'lib, yetishtirishda har ta'sir ko'rsatadi. Psixolog o'quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lishi tarbiyaviy tadbirlarni o'quvchilarning ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirilishi, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini boyitib borishi lozim.

Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste'dodga, ilmgava mashqqa degan edi, ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan holda psixologlar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyada ulg'anayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitlarning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqiy va erkinligini etiborga olish;
- milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalarga tayanish, jahon madaniyatining ilg'or

tajribalariga asoslanish, o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli bolalar yosh jihatlariga mos hayoti iqlimini yaratish, mehnat, hayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko'ngilaochar va shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etishi lozim.

Demak, maktab amaliyotchi psixologgi jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi murakkab shaxs strukturasiga ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Psixologning tayyorgarligi va bilimlar integratsiyasi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni e'tiborga olish kabilar kuchli bo'lishi kerak. Yuksak saviyali zo'r mahoratli psixologlarga xalq orzusidagi barkamol shaxsni tarbiyalaydi. Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari, pedagogik olimlar barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab bergenlar. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. Abdulla Avloniy aytganidek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari najotiga aylangan". Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir . Shuning uchun avvalambor ilmli, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi.

Shu maqsadda ko'nglida eng oliy orzularni jamlab, maktab amaliyotchi psixolog ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatini hurmat qilib, bergen bilimlarini egallamoq kerak. Behbudiy aytganidek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir". Ibn Sino ta'kidlaganidek: "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil". Albatta, bunda o'qituvchining bilimi, mahorati beqiyosdir. Amaliyotchi psixologning bilim darajasi sharqona fikr yurita bilishi, ish bilan harakatning birligi maktab o'quvchilarining ijodiy fazilatlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston"2017 486 bet.
2. G'oziyev E.G'. Umumiyl psixologiya. T.: O'qituvchi, 2010
3. Djurayev R.X, Inoyatova M.E. Iste'dodli farzand tarbiyasi. Ota onalar kitobi. Toshkent, 2013
4. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013

VI БЎЛИМ. ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИИ В ЦИФРОВОМ АВТОМАТЕ

Баймуратова Ирина Викторовна

Студентка-магистрантка, педагог по информационным технологиям

Ташкентский государственный технический университет

имени Ислама Каримова

Узбекистан, г. Ташкент

E-mail: xerson2681@gmail.com

Бозоров Эркин Ходжисевич

Профессор технических наук

Институт Ядерной физики АНРУз.

Узбекистан, г. Ташкент

Аннотация В статье описывается понятие информации и представления информации в цифровом автомате .

Ключевые слова: Информация, позиционные ,непозиционные системы счисления, бинарный код.

-Что же такое число?

С развитием обмено-торговых отношений, развивалась и потребность в цифрах.

Числа и цифры были с начало привязаны именно к определенным предметам, которые потом переросли в системы счисления.

Система счисления:

- даёт понятие множеств целых или вещественных;
- каждое число даёт уникальное представление для каждого числа
- отражает алгебраическую и арифметическую структуру чисел.

Если рассматривать информацию, как объект изучения в науки информатики, то электронно- вычислительные машины(ЭВМ) являются техническими исполнителями по обработки данной информации. Зная, что вся информация в компьютерах находится в виде наборов и комбинаций цифр, целесообразно сказать, что познание цифровой зависимости – есть познание самой информации. В этом случае вся работа будет основана на изучении систем счисления и работы данными системами.

Все известные системы счисления подразделяются на позиционные и непозиционные.

Позиционными системами счисления считаются ,такие системы при разложении которых можно выделить основание данной системы и числовой смысл меняется от положении цифры в данном числе. Разложение производиться по формуле:

$$T = a_n q^n + a_{n-1} q^{n-1} + \dots + a_1 q^1 + a_0 q^0 + a_{-1} q^{-1} + \dots + a_{-m} q^{-m},$$

Где Т –это число, основанием числа является q ; a - коэффициенты ряда, т.е. цифры системы счисления; n, m - количество целых и дробных разрядов соответственно.,то наиболее используемая в повседневной жизни является десятичная система счисления, которая содержит в себе арабский цифровой ряд.(0,1,2,3,4,5,6,7,8,9)

Название систем счисления происходит от количества содержащихся в них цифр. Данная система счисления была открыта индусскими математиками в 400г н.э., но широко применять данную систему счисления начали арабы с 800 г.н.э., отсюда эта система счисления получила название арабской , с 1200г. Н.э., она стала применяться в Европе и называться десятичной.

Если в системе счисления содержится 3 цифры, то это троичная система, если 7-симеричная, но в информатике используют чаще всего три типа систем счисления. Это 2-двоичная, 8-восмиричная, 16-шестнадцатиричная.

Если рассматривать позиционные системы может возникнуть вопрос, какая система счисления и почему используется в цифровых автоматах. Давайте определим это, рассмотрев строение компьютера. В компьютере для хранения информации используют ячейки памяти, которые называются триггерами и регистры. Если рассмотреть строение триггеров, то оно имеет только два положения переключателя: “включено”, то есть «1» и “выключено”-«0». Значит, триггер несет информацию в один бит.

Отсюда следует определение длины числа- это количество позиций или разрядов в записи числа.

Таблица №1.

Десятичная	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
Двоичная	0	1	1	1	1	1	1	1	10	10	10	10	11	11	11	11
		0	1	0	0	1	1	00	01	10	11	00	01	10	11	
			0	1	0	1										
Восьмирична я	0	1	2	3	4	5	6	7	10	11	12	13	14	15	16	17
Шестнадцатирична я	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F

Теперь давайте рассмотрим непозиционные системы счисления. Исходя из истории, непозиционные системы возникли раньше позиционных систем.

Недостатки данных систем заключаются в трудности записи больших чисел, она громоздка, либо алфавит системы чрезвычайно велик. Самая распространённая система-это римская.

Таблица №2.

• V	• означает "пять";
• X	• означает "десять";
• L	• означает "пятьдесят";
• C	• означает "сто";
• D	• означает "пятьсот";
• M	• означает "тысяча";

Несмотря на многообразие систем счисления, наиболее главной является бинарная система счисления. История двоичной системы счисления начинается со статьи Г. В. Лейбница, в которой рассматривались правила выполнения всех арифметических операций в двоичной системе. До начала тридцатых годов XX века прикладная математика не занималась изучением двоичной системой счисления. С конструированием счетных механических устройств, которые с простым набором действий над двоичными числами привели к более глубокому и активному изучению особенностей двоичной системы как системы, пригодной для аппаратной реализации. Франция и Германия являются странами, где впервые были построены первые механические двоичные машины. Утверждение двоичной арифметики в качестве общепринятой основы при конструировании

ЭВМ с программным управлением состоялось под несомненным влиянием работы А. Бекса, Х. Гольдстайна и Дж. Фон Неймана о проекте первой ЭВМ с хранимой в памяти программой, написанной в 1946 году.

Начиная с 1950 годов и на протяжении 20 лет в программировании начали использовать восьмеричную систему счисления, но она была вытеснена шестнадцатеричной системой, внедреной американской корпорацией IBM. Широко используется в программировании для IBM-совместимых компьютеров. С другой стороны, в некоторых языках сохранились и следы использования этой системы счисления в прошлом. Например, в романских языках (испанском, французском и др.) числительные от 11 до 16 образуются по одному правилу, а от 17 до 19 – по-другому. А в русском языке известен пуд, равный 16 килограммам.

Не смотря на использование в программировании 8-ой и 16-ой систем счисления, основой всего программирования является двоичная система счисления, потому что даже если рассмотреть десятичную систему счисления можно сделать вывод, что в основе разрядом десятичной системы лежит двоичная система счисления.

Пример :1-единицы,10-десяток,100- сотня,1000 тысяча, в разрядах используются цифры «0»и «1».отсюда можно сделать вывод, что вся информация в цифровых машинах, представляет собой набор двоичного кода.

Использованная литература:

1. Кодирование информации (Двоичные коды). Березнюк Н. Т. Андрушенко А. Г. И др. Харьковю 1978.
2. Выгодский М.Я. Справочник по элементарной математике, М.: Государственное издательство технико-теоретической литературы, 1956.
3. Каган Б.М. Электронные вычислительные машины и системы, М.: Энергоатомиздат, 1985.
4. Майоров С.А., Кириллов В.В., Приблуда А.А., Введение в микроЭВМ, Л.: Машиностроение, 1988.
5. Фомин С.В. Системы счисления, М.: Наука, 1987.
6. https://studwood.ru/1779779/informatika/predstavlenie_informatsii_tsifrovyyh_a_vtomatah
7. 1.Чернов В.Г. Математические и логические основы ЭВМ. Методические указания к самостоятельной работе студентов ВПИ, Владимир 1992-47с.

**DEVELOPMENT OF PULSE OXIMETER MEASURING BLOOD OXYGEN
CONTENT AND HEART RATE WITH DATA DISPLAY ON LCD DISPLAY
BASED ON SILICONE SENSOR.**

Irina Baymuratova

Master's student

Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Uzbekistan, Tashkent city

Abdulaziz Mavlanov

candidate of technical sciences, head of laboratory

Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

Uzbekistan, Tashkent city

E-mail:xerson2681@gmail.com

ABSTRACT

The article provides data on the development of joint projects between laboratories of Uzbekistan with other countries.

Key words: flint sensor, medical devices, competitiveness, accuracy in indication.

Information technology developments in the field of medicine are carried out all over the world. Each country is trying to get closer to the most accurate indicators in medical devices, at the lowest cost of production and operation. Indeed, the quality of medical care for citizens, and hence the health of the nation as a whole, depends on the

accuracy of technical means and software for devices related to medicine, as well as on the competitive price of such devices.

Therefore, against the background of the prevailing epidemiological situation around the world, our state has given the opportunity to all scientific laboratories of the country to work in this direction.



So on the basis of the State Unitary Enterprise "Uzbek-Japanese Youth Center for Innovation" of the Republic of Uzbekistan, serial developments are underway. The device is designed to read a person's heart rate from the index finger.

This device is based on a silicon ultrasound sensor, which allows you to more quickly determine the level of oxygen in the blood, and also has a low error, which allows you to get a high-precision result.

Also, this pulse oximeter makes measurements in less time, works autonomously, and also has low energy costs.

Also, software is being created for the clear transfer of this kind of data to a personal computer and storage of such data, for further use by medical personnel in the treatment of patients.

References::

1. The report is accompanied by an online interactive attachment with options for detailed data presentation and analysis of the results of the 2015 WHO global eHealth survey for countries in the European Region. The application is available on the website: (<http://portal.euro.who.int/ru/data-sources/ehealth-survey-2015>).
2. <https://lex.uz/docs/4409505#4410175>
3. Bukharbaeva L.Ya., Egorova Yu.V. Automated decision support system for a doctor in diagnosing a patient's condition // Health Economics. - 2005. - No. 2.
4. Gasparyan S.A. and others. Technology of information support for automated workstations of doctors in medical departments, development of hospitals Methodical recommendations. - M., 2000.

**VII БЎЛИМ. ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ
ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ФАОЛЛИГИНИ
ОШИРИШ УЧУН АКТДАН ФОЙДАЛАНИШ.**

Ниязхонова Б.Э., Абдийҳамидова

Сония Жамишид кизи Бухоро

давлат университети магистр.

Анотатсия: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 3-апрелдаги ўтказилган йиғилишида “Ёшлар Маънавиятини Юксалтириш Ва Уларнинг Бўш Вақтини Мазмунли Ташкил Этиш Бўйича 5 Та Мухим Ташаббус” илгари сурилган эди.

Учинчи Ташаббус: “Аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган бўлиб,

бундан шуни тушуниш мумкинки шиддат билан ривожланиб бораётган мустақил Ўзбекистонимизнинг аҳолиси ва ёшлари қайси соҳа бўлмасин компьютер технологиялари ва интернетдан фойдаланишни юқори даражада ўрганмоқликлари керак. Энг аввало мактабгача таълим тизими ва ўрта таълим мактабларда ўқувчиларни компьютер саводхонлигини ошириш назарда тутилади.

Ҳозирги ахборот ва коммуникация асрида инсоният фаолиятининг барча соҳаларини қамраб олаётган компьютерлардан умумтаълим мактабларида физика фанини ўқитишида фойдаланиш дарс самарадорлигини оширишда жуда яхши натижалар беради. Шуни эътиборга олган ҳолда, физикада тажрибаларни ўtkазиш, уларни бажариш босқичларини компьютерда анимацион турда намоиш этишини ташкил қилиш мактаб ўқувчилари учун кўргазмали, қизиқарли ва яхши эслаб қолишга ёрдам берадиган машғулотлар бўлиши аниқланган. Шу жумладан ўтказилган қатор тадқиқотлар ўқитишининг қулий ва кўргазмали усувларидан бири сифатида физика фани асосларини ўқитиши ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда, амалга оширишни қулий эканлигини кўриб ўтамиш:

Бугунги кунда ўқувчиларга дарс беришнинг замонавий ахборот технологияларини қўллашга асосланган янги турлари янги пед технологиялар шаклланмоқда. Улар орасида компьютерда маҳсус дастурлар ёрдамида ўқувчилар томонидан кузатилиши қийин бўлган физик жараёнларни, анимациялар, видеороликлар воситасида кўргазмали тушунтириш салмоқли

аҳамиятгаэга.

Масалан:

- Физика 7-11 синфлар - "Физикон" дастури
- "Янги диск" виртуал физика тажрибалари конструктори
- Физикадан видеомасалалар
- "Мактабда физика" электрон дарслари ва тестлари
- Очиқ физика - "Физикон" дастури

Умумтаълим мактабларида физика фанини ўқитиш жараёнида ахборот технологияларини қўллаш педагогик ва психологик нуқтаи назардан катта аҳамиятга эга бўлиб, қўйидаги муҳим натижаларга олиб келади:

- **дарс самарадорлиги ошади, ўқув-тарбия жараёни фаоллаштирилади;**
- **ўқув материалининг турли шаклда (овоз, матн, видео, гарфика, анимация ёрдамида) узатилиши ўқувчининг диққатини тортади;**
- **вакт танқислиги муаммоси кескин камаяди;**
- **юқори даражада кўргазмалилик ўқувчида ўрганилаётган фанга нисбатан катта қизиқиш уйғотади;**
- **ўқувчиларда компьютер саводхонлигини оширади;**
- **ўрганилаётган ўқув материалининг узоқ муддат хотирада сақланишини таъминлайди;**
- **ўқувчиларда мустақил таълим олиш имкониятлари кўпаяди ва мустақил таълим олиш кўникмалари ривожланади;**

бир сўз билан айтганда таълим тарбия жараёнида яхши натижалар қўлга киритилади.

Бундай дарслар ўқувчиларнинг физикани ўрганишга бўлган қизиқишини оширишга, уларнинг билиш фаолиятини фаоллаштиришга, илмий ва умумий дунёқарашни шакллантиришга ёрдам беради. Бундан ташқари, бундай дастурлардан тўлиқ таклиф қилинган ҳажмда ҳам фойдаланиш мумкин, ёки ўқитувчи томонидан муайян дарс ва аниқ вазифалар учун тақлид қилиш ҳам мумкин.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdalova S. Mustaqil ta'limni boshqarish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda kreativ texnologiyalar ning o'rni //Ta'lim menejmenti.-Toshkent, 2011.
2. Bandarkova A. Kreativnaya pedagogicheskaya texnologiya formirovaniya professionalnoy kulturi uchashixsy // Nauchno-metodicheskiy jurnal.-Moskva, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi: www.edu.uz.
4. Ijtimoiy axborot ta'lim portalı: www.Ziyonet.uz.
5. <http://www.tami.uz> - Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha foydali ta'lim resurslari.
6. <https://yandex.uz/video/preview> - yandex qidiruv tizimi video lavhalari.

IX БЎЛИМ. КИМЁ ВА БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ
XORAZM TUPROQ IQLIM SHAROITIDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNI
YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Matkurbanov Temur

Urganch Davlat Universiteti o‘qituvchi

Xabibullo Xoji Xojarbibi Alisher qizi UrDU talabasi
xabibilloxojihajarbibi@gmail.com

Annotatsiya. Mamlakatimiz aholisini samarali, arzon va sigatli dori vositalari bilan ta‘minlanishini yaxshilashni yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarni qishloq xo‘jaligi madaniy o‘simliklari qatoriga kiritish va ularni katta maydonlarda, ya‘ni plantatsiyalarda yetishtirish va shu asosda ulardan ekologik toza xomashyo olish hisobiga amalga oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simlik xomashyosi, plantatsiya, faol modda, dorivor o‘simliklar bog‘i, insolyatsiya.

Ma‘lumki madaniy holda yetishtirilayotgan dorivor o‘simliklar dori vositalari uchun asosiy xomashyo manbasi bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi kunda dorivor o‘simliklarning 50ga yaqin turlari qishloq xo‘jaligida madaniy ekinlar qatoriga kiritilgan. Qishloq xo‘jaligida dorivor o‘simliklarni madaniy ekinlar qatoriga kiritish bu - dorivor o‘simliklarni katta maydonlarda, ya‘ni plantatsiyalarda yetishtirish tushunilib, o‘simlikning yangi sharoitlarga moslashish va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganishga, ularni yetishtirish agrotexnikasi bo‘yicha ishlab chiqilgan chora tadbirlarga

yo‘naltirilgan bir qator kompleks tadbirlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Qishloq xo‘jaligida dorivor o‘simliklarni madaniy ekinlar qatoriga kiritishning asosiy sabablaridan biri, yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning xomashyosi farmasevtika sanoati ehtiyojlarini har doim ham talabini qondira olmaydi. Ko‘p hollarda madaniy holda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning xomashyosi - tarkibida faol moddalarning yuqoriligi, hamda turli yot jinslardan tozaligi kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklardan ustun turadi. Ilmiy tajribalardan ma‘lumki har qanday madaniy ekinni yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish, ekologik sof mahsulot sifatli va yuqori hosil olishni maqbul yechimlariga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan bo‘lishi lozim. Qishloq xo‘jaligi ishlarining mavsumiyligi, agrotexnika tadbirlarini aniq belgilangan muddatlarda yetkizish lozimligi, har yilgi ob - havo sharoitining bir biriga deyarli o‘xshamasligi, har bir mintaqaning tuproq iqlim sharoitini bir biridan keskin farq qilishi va boshqa ko‘pdan-ko‘p omillar dorivor o‘simliklar o‘stirish texnologiyasini ishlab chiqishda ko‘plab noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Xorazm Ma‘mun akademiyasining "Dorivor o‘simliklar bog‘i" tajriba dalalariga mahalliy va chetdan keltirilgan sharfey, makkai sano, chetan, arslonquyruq, dalachoy, moychechak, bo‘znoch, limono‘t, rastoropsha kabi dorivor o‘simliklarning urug‘lari ekilib ularning o‘sishi rivojlanishi va hosildorligi shu bilan birga ularning ekologik, fiziologik va biokimyoiy xususiyatlari o‘rganildi. Tajriba dalasiga dorivor o‘simliklar tibbiyotda xomashyosining ishlatilishiga qarab yer ustki qismi xomashyo sifatida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar (tukli erva, arslonquyruq, dorivor qashqarbeda) barg va tepa qismlari xomashyo sifatida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar (teshik dalachoy, limono‘t, ortosifon, o‘tkir bargli sano, oddiy bo‘ymadaron) va to‘pguli va mevasi xomashyo sifatida

ishlatiladigan dorivor o’simliklar (moychechak, namatak, rastoropsha) ga guruhlanib ekildi. Tanlab olingan o’simliklar tajriba dalalariga ekilib, ularning bioekologik xususiyatlari va yetishtirish agrotexnologiyalari o’rganildi. Ertapishar serhosil, turli kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy duproq iqlim sharoitlarga moslashgan va boshqa foydali xo‘jalik belgilargaega dorivor o’simliklarni ko‘niktirish va sinash jarayonida qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirish, ozuqaviy qiymati va texnologik sifatlarini yaxshilashga muayyan zamin yaratadi. Ular qishloq xo‘jaligi ekinlarining turlari va navlarini tuproq iqlim sharoitlarining hisobga olibgan holda joylashtirishda samarali qo‘llanilmoqda. Shu boisdan vohamiz tuproq iqlim sharoitlarida yangi va istiqbolli dorivor o’simliklarning an‘anaviy va zamonaviy tibbiyotda qo‘llanilishiga qarab Xorazm vohasining sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitida mahalliy va chetdan keltirilgan sharfey, makkai sano, chetan, arslonquyruq, dalachoy, moychechak, bo‘znoch, namatak, bo‘y.adaron, tukli erva, limono‘t kabi dorivor o’simliklarning bioekologik xususiyatlarinio‘rganish jarayonida ularni yetishtirish texnologiyalarining o‘ziga xos tomonlariga ham e‘tibor qaratiladi. Ma‘lumki, Xorazm vohasi sharoitida dehqonchilik qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Voha sharoitida bahor va yoz oylarining boshlarida bo‘ladigan shamollar oqibatida dalani ekishga tayyorlash ishlari biroz cho‘zilib, tuproq me‘yordan ko‘proq namligini yo‘qotib, tekis nihollar olishga salbiy ta‘sir qiladi. Undan tashqari unib chiqqan nihollar shamol ta‘sirida qovjirab qolib muddatidan oldin suv talab qiladi.
2. Yerning sho‘rini yuvishda dalaning aniq tekislanishini ta‘minlash zarur, aks holda ekin maydoni notekis tobga keladi nihollar turlicha muddatlarda unib chiqadi.

3. Unib chiqqan ekinlarning qator oralariga ishlov berishda ayniqsa sug‘orishda ekin maydonlarning tekisligiga katta ahamiyat berish zarur.
4. Yozning jazirama issiqligi, insolyatsiya (kuchli quyosh radiatsiyasi), kuzning erta kelishi o‘simliklarning biologik xususiyatlarini e‘tiborga olishni talab qiladi.

Xulosa. Xorazm vohasi sharoitida dorivor o‘simliklarni o‘stirish boshqa xududlarda o‘sadiganlarini shu iqlimga ko‘niktirish o‘ta muhim muammodir, chunki Xorazm tuprog‘i turli darajada sho‘rlangan bo‘lib, har qanday giyoh ham o‘savermaydi. Sho‘rlangan tuproqlarda dorivor o‘simliklarni o‘stirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish, o‘simliklarni shu hudud iqlimiga moslashtirish hamda ekologik toza profilaktik dori preparatlari uchun xomashyo bazasini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar.

- 1.H.X.Xolmatov, O‘.Ahmedov. Farmakognoziya. Toshkent 1995.
2. O‘.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov va b. Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi - Toshkent 2018
3. Sh.Yu.Qadirov, U.Q.Abdurahmanov va b. Xiva - 2019

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

1. КИРИШ.....	4
II БЎЛИМ. ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР	
2. RADIKAL G‘OYALARGA QARSHI KURASHISHNING ASOSLARI.	
<i>Boltayeva Dilsor</i>	6
3. MUSTAQILLIK BUYUK NE’MAT!	
<i>Xatamova Nargiza Normurodovn</i>	9

III БЎЛИМ. ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

4. TARIX FANI O‘QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI	
<i>Egamberdiyeva Umida Abdurakimovna</i>	13
IV БЎЛИМ. ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДЌИҚОТЛАР	
5. ONA TILI DARSLARINING MAQSADGA KO`RA TURLARI	
<i>Naziraxon Xudoyberdiyeva</i>	15
6. THE PROBLEMS OF IMPROVING THE QUALITY AND EFFECTIVENESS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGES IN SECONDARY SCHOOLS	
<i>ISMATOVA FERUZA SHUKUROVA SHOHSANAM</i>	23

V БЎЛИМ. ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

7. ABDULLA QAHHOR IJODINI O‘QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV	
<i>Qodirova Shahnoza Xalil qizi</i>	26
8. MAKTABLARDA PSIXOLOGIK XIZMATNI YO'LGA QO'YISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYA	
<i>Matkarimova Shahnoza Ne'matjonovna</i>	31
9. BOLALARDA QO'RQUV VA XAVOTIRLANISH XOLATLARINITUZATISHDA	
MUSIQATERAPIYA USULIDAN FOYDALANISH	
10. AXMADOVA INOBAT ABDIXOLIQOVN.....	35
11. JACK LACAN: ABOUT THE SOURCES AND NATURE OF POWER	
12. <i>Mamarasulova Farida Toshtemirovna</i>	39

13. BOLA TARBIYASIDA OTA- ONALARING PSIXOLOGIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI	
<i>Ibaydullayeva Surayyoxon Xabibullayevna</i>	45
14. BOLA TARBIYASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATARI	
<i>Jo'raqulova Munira</i>	48
15. BARKAMOL AVLOD SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI	
<i>Jo'raqulova Munira</i>	52
16. ПРЕДСТАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИИ В ЦИФРОВОМ АВТОМАТЕ	
<i>Баймуратова Ирина Викторовна.....</i>	56
17. DEVELOPMENT OF PULSE OXIMETER MEASURING BLOOD OXYGEN CONTENT AND HEART RATE WITH DATA DISPLAY ON LCD DISPLAY BASED ON SILICONE SENSOR.	
<i>Irina Baymuratova.....</i>	62
18. ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ УЧУН АКТДАН ФОЙДАЛАНИШ.	
<i>Nиязхонова Б.Э., Абдийҳамидова.....</i>	64
19. ORAZM TUPROQ IQLIM SHAROITIDA DORIVOR O'SIMLIKLARNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI	
<i>Matkurbanov Temur.....</i>	68

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ЁШ ОЛИМЛАР
КЕНГАШИ**

“BZONE CONSULTING CENTER” МЧЖ ҲАМДА

**ЎЗБЕКИСТОН ИНТЕРНЕТ ТАДБИРКОРЛАР ВА ЭЛЕКТРОН САВДО
АССОЦИАЦИЯСИ**

ТАШАББУСЛАРИ БИЛАН

**“ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ФАН, ТАЪЛИМ ВА
ИННОВАЦИЯ УЙҒУНЛИГИ”**

**мавзусидаги Республика 10-сон кўп тармоқли илмий масофавий онлайн
конференцияси 1-қисм**

МАТЕРИАЛЛАРИ

**Масъул мухаррир: Г. Т. Исanova
Нашрга тайёрловчи: М. М. Ваҳобова
Техник мухаррир: Х. У.Тўхтаев**

Эълон қилиш муддати: 30.08.2021

ТОШКЕНТ 2021